

O`zbekiston Respublikasi
Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi
Navoiy davlat konchilik instituti

“Pedagogika va gumanitar fanlar” kafedrası

Referat

Fan: O`zbek tili

Mavzu: So`roq gap haqida ma`lumot

Topshirdi: 14-10 GD guruh talabasi

Alaxidinova S.

Qabul qildi: G`aniyev N.

NAVOIY-2011

SO`ROQ GAP HAQIDA MA`LUMOT

So`zlovchiga noma`lum bo`lgan voqelik haqidagi so`roqno ifoda qiluvchi gap so`roq gap deyiladi. Bunday gap alohida ohang bilan aytiladi. Maxsus so`zlar vositasida tuziladi. so`roq gaplar oxiriga so`roq belgisi qo`yiladi. So`roq gap ko`proq dialog shaklidagi nutq uchun xarakterlidir.

So`roq gaplar so`roqning xarakteriga ko`ra uchga bo`linadi: sof so`roq gaplar, ritorik so`roq gaplar, so`roq-buyruq gaplar. Bular ichida eng ko`p qollanadigani sof so`roq gaplardir.

Sof so`roq gaplar tinglovchidan ma`lum javobni talab qiladi. Masalan, *Uyingiz olismi? Nima bo`ldi, bolajon? –so`raganning aybi yo`q, Husan aka, nega sizni duma deyishadi?*

Ba`zan bunday so`roq gaplar, savolga tezda javob olina bermaganda, takrorlanib kelishi ham mumkin. Masalan, *Darsga nega kechikib kelding? Nega?*

Sof so`roq gaplarda, so`roq bilan bir qatorda, taajjub (Meni taniyapsizmi?), buyruq (Tezroq gapirsangizchi?), subha yoki gumon (bu kishi o`qituvchi bo`lsa kerak-a?) kabi ma`nolar anglashilishi mumkin.

Ritorik so`roq gaplarda so`roq ichida uning javobi ham ahglashilib turadi. Ritorik so`roq emotsional nutq uchun uslubiy vosita bo`lib xizmat qiladi. Masalan, *Menga desa ming kishi bo`lmaydimi? (O`.H.)*

So`roq gap quyidagi vositalar yordami bilan tuziladi:

1. So`roq yuklamalari bilan. So`roqni ifoda qilishda so`roq yuklamalari (-mi, -chi, -a, -ya) faol qatnashadi. So`roq yuklamalari yordamida tuzilgan so`roq gaplarda so`zlovchi ko`pincha tinglovchidan tasdiq yoki inkor talab qiladi. Masalan, - *Bugun qanaqa kunligini bilasanmi? – Kelishdikmi, Muzaffar! Domlangni oldida ba`da berasan-a? (O`.H.)*

2. So`roq olmoshlari bilan. So`roq olmoshlari (kim, nima, qachon, nega, qayerga, qanday va boshqalar) ishtirokida tuzilgan so`roq gaplar aytilayotgan fikrning noma`lum bo`lgan biror elementini aniqlash uchun xizmat qiladigan javobni talab qiladi. Masalan, - *Nega shunday payg`mbar odam birdan orqasiga tisarilyapti? (O`.U.)*

3. So`roq gaplar nahot, nahotki kabi so`z yuklamalari bilan ham tuzilishi mumkin. Bunday so`roq gaplar taajjub, shubha ma`no ottenkalarini ham ifodalaydi. Masalan, - *Nahotki yangi yo`l izlamadim?! (O`.U.)*

4. So`roq ohangi orqali. So`roq gaplarda ohang ko`tariluvchi, pasayuvchi va ko`tariluvchi-pasayuvchi bo`ldi.

Ko`tariluvchi ohang. Bunda mantiq jihatdan ajratilayotgan bo`lak gap oxirida kelib, baland ovoz bilan, ko`tariluvchi ohang bilan aytiladi:

boramiz?

sayohatga

ertaga

Biz

Pasayuvchi ohang. Bunda mantiq jihatdan ajratiladigan bo`lak gap boshida bo`lib, gap pasayuvchi ohang bilan aytiladi:

Biz
ertaga
sayohatga
boramiz?

Ko`tariluvchi-pasayuvchi ohang. Bunda mantiq jihatdan ajratiluvchi bo`lak gap ichida bo`ladi:

sen
ertaga
seminarga
Nahotki, qatnashmasang?

Savol-javoblarning logik-pragmatik xususiyatlar.

So`zlarning pragmatik ma`no komponentlari

Pragmatika atamasi tilshunoslikda yunoncha, ish, harakat ma`no-larini beradi. Amerikalik tilshunos Charlz Morrisning mashhur genial asari "Semiotika" nomli tadqiqotida lisoniy belgilar haqida ta`limot berilib, lisoniy belgilarni uch asosiy va tarkibiy qismi borligi e`tirof etiladi.

"Semiotika" asarining birinchi qismi sintaktika, bunda lingvistik paradigmatica va sintagmatika haqidagi masalalar o`rganilgan, ikkinchi qismi semantika deb yuritilib lisoniy belgilarning mazmun va ma`no xususiyatlari va nihoyat, uchinchi bo`limi pragmatika deb yuritilib, unda so`zlovchi va tinglovchi effektiga lisoniy birliklarning kodlashtirilishi va dekodlashtirilishi masalalari xal etiladi.

Pragmatika sohasi-ku o`zbek tilshunosligida mutlaqo o`rganilmagan desa ham bo`ladi, afsuski pragmatika atamasining ma`no va mazmun xususiyati ham kam o`rganilgan. Pragmatikani burjuaziya falsafasining reaksion oqimi sifatida qarab kelindi. Natijada so`zlovchi va tinglovchi effekti va ularning nutq

faoliyatlaridagi lisoniy belgilardan foydalanishlari yarim to'ldirilgan holatda o'rganildi.

Nutq faoliyati strukturasi. Funktsional, semantik, logik va pragmatik sintaksislarni o'rganish oldingi strukturaviy sintaksis haqidagi nazariyalarning ilmiy potentsiali juda kamligi va ilmiy jihatdan nihoyat darajada pastligidan dalolat beradi.

Fikr bildirish hozirgi an'anaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan sintaksisning o'rganish obyekti hisoblanadi. Funktsional sintaksisda fikr bildirishning ikki tomoni tavsiflanadi. Birinchisi voqea-hodisalarning predmet-moddiy tomonini tasvirlasa, ular o'rtasidagi munosabat haqida fikr bildirsa, uni tilshunos Sharl Balli terminologiyasi bilan ataganda fikrning predmet-denotativ aspekti deb ataladi va diktum atamasi bilan nomlanadi. Fikr bildirishning boshqa tomoni modal kommunikativ aspekt hisoblanab yoki modus atamasi bilan nomlanib, fikrning maqsad va shart-sharoitlari tasvirlanadi. Quyidagi gaplar misolida diktum va modus atamalarining tavsiflanishini ko'rib chiqamiz: Alisher keldi. Alisher keldi? Alisher keldi; Alisher, kel!; Alisherning kelishini istar edim. Bu gaplarning hammasi Alisherning kelishi bilan mos keladi. Alisherning kelishi fikr bildirishning diktumini tashkil etadi. Yoki Alisher va kelmoq propozitsiyasi gaplarda diktum-subyekt-predikat munosabatini ifodalaydi. Ifoda maqsadiga ko'ra esa daraka, so'roq, buyruq kabi turlarda va emotsional ko'rsatkichlarga ega bo'ladi, bular esa modusni tashkil etadi.

Pragmatik tadqiqotlar nutq ko'rinishidagi ifoda maqsadidagi diktum va modus komponentlari bilan tavsiflanmasdan, balki bu komponentlarni shakllantiradigan nutq jarayonining komponentlarini tahlil qilishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Nutq faoliyatining umumiy strukturasi quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- so'zlovchi;
- nutq adresati;
- dastlabki fikr bildirish manbasi; (so'zlovchi presuppozitsiyasi)

- axborot maqsadi;
- nutq faoliyatining ichki tuzilishi va uning taraqqiyoti;
- nutq konteksti situatsiyasi (vaziyati).

Yuqorida ko`rib chiqqan nutq faoliyati strukturasi tarkibiy qismlarining ayrimlari adresantga (so`zlovchiga), boshqalari esa nutq adresatiga taalluqli bo`ladi, uchinchi esa ular o`rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Inson nutqi egosentrik prinsipga asoslangan. So`zlovchi (adresant) o`z ongida voqelik predmetlari orasidagi o`zaro aloqadorlik va o`zaro bog`liqlik munosabatlarini aks ettiradi. Ayrim tilshunos olimlar nutqning bu ko`rinishini nutqning subyektivligini ko`rsatadi deya izohlaydi. Nutqning subyektivligi bu subyektivizm ko`rinishi emas.

So`zlovchi xususiyatini ifodalovchi semantik kategoriyalarga quyidagilar kiradi: a) nutq lokatsiyasi. So`zlovchi lokalizatsiyasi uch turda bo`linadi, ya`ni personal - men, makonda - shu yerda, zamonda - hozir kabi. b) so`zlovchining modal munosabati. So`zlovchining modal munosabati ikki ko`rinishda bo`ladi. Diktum modalligi va modus modalligidir. v) so`zlovchining fikr bildirishga bahosi va munosabati; g) nutqning emotivligi; d) so`zlvchining bayon qilayotgan fikriga qiziqish darajasi kabi kategoriyalarni o`z ichiga oladi.

Nutqning adresatga yo`naltirilganligi muhim rol o`ynaydi. Adresat kategoriyasida uch semantik xususiyat farqlanishi lozim. a) fikr bildirish maqsadining informativligi. Bu kategoriyada gaplarning aktual bo`linishi muhim ahamiyatga ega bo`ladi. Nutq jarayonidagi uzatilayotgan xabar adresatning fikr doirasi darajasi bilan ham mos kelishi kerak. Agar adresatning fikr doirasi so`zlovchi fikr doirasidan darajasidan past bo`lsa, adresatga berilayotgan axborot tushunarli bo`lmaydi. Natijada bildirilayotgan fikr adresatga yetib bormaydi va tushunarsiz nutq jarayoni hosil bo`ladi xolos. b) nutqning emotivligi adresatga ham taalluqli bo`ladi. Bu yerda nutqning adresatga ta`siri emas, balki adresatning nutq jarayoni hosil bo`layotgan fikr bayoniga qiziqish darajasi, ya`ni unga aytilayotgan faktning taasurot qoldirishi bilan bog`liq. v) nutqning adresat uchun tushunarli va erkin bo`lishi darajasiga ham bog`liq.

Fikr bildirishda kommunikasiya ishtirokchilarining o`zaro shaxslararo munosabati ham muhim rol o`ynaydi. So`zlovchi va tinglovchi munosabati yakka-yakka holda bo`lishi mumkin. Shunda ular o`rtasidagi munosabat masalasi ham nutq jarayonini tashkil etishda va ularni ijobiy o`zlashtirishda belgilovchi bo`ladi. Agar so`zlovchiga tinglovchining munosabati salbiy bo`lsa, unda nutq jarayoni tashkil etilishi ijobiy xal bo`lmaydi. So`zlovchi va tinglovchi munosabati ikki kontekstda ruyobga chiqadi. Shulardan birinchisi mikro kontekst va ikkinchisi makro kontekst. So`zlovchi va tinglovchining yakka-yakka tartibdagi muloqoti bo`ladi. Agar so`zlovchi auditoriyada leksiya o`qisa, diktir televideniyeda gapirsa, radioda so`zlasa, yozuvchi katta hajmdagi romanni yozsa, unda so`zlovchi va tinglovchi / adresant va adresat munosabati makro kontekstda ruyobga chiqadi. Ular o`rtasidagi munosabat bir xil bo`lmaydi. Chunki so`zlovchi bilan tinglovchi yoki o`quvchi o`rtasidagi bilim doirasi, dunyoqarash va shu kabi madaniy komponentlar turlicha bo`ladi, fikr bildirish jarayoni, yaxni adresat faoliyati ancha murakkab kechadi.

Fikr bildirishning boshlang`ich manbasi so`zlovchining ongida, tafakkurida aytilishi zarur bo`lgan fikrning tashkiliy qismlari sifatida leksik birliklarning virtual holatidagi ma`no komponentlari dekodlashtiriladi. Dekodlashtirilgan fikr komponentlari nutq jarayonida og`zaki yoki yozma ravishda so`zlovchi tomonidan bayon etiladi.

Bu tilshunoslik terminologiyasida so`zlovchi presuppozitsiyasi deb nomlanadi. So`zlovchi presuppozitsiyasi strukturaviy-semantik keng yoki qisqa bo`lishi mumkin. Boshlang`ich manba haqida ma`lumot bo`lmasa, so`zlovchim fikrini ro`yoba chiqara olmaydi.

Nutq strukturasining navbatdagi komponenti fikr bildirish maqsadit bo`lib, fikr bildirishning quyidagi semantik kategoriyalarini belgilaydi: axborot, savol, so`roq, buyruq, xitob, nutq tipologiyasi kabilar.

Nutq texnologiyasi. Yuqorida ko`rib chiqqanimizdek, nutq strukturasida odamlar qanday gapirishi va ularning nutqlari strukturasini tuzilishi qanday elementlardan tashkil topganligini o`rgansa, nutq texnologiyasida qanday

maqsad bilan soʻzlash yoki yozish, umuman olganda fikr bildirish tavsiflanadi, tasniflanadi va oʻrganiladi.

Nutq faoliyati tipologiyasining aniq tasnifi va tavsifi hozirgacha aniqlangan emas. Ayrim tilshunoslar nutq tipologiyasi tasnifi va tavsifini bir xil tushuntirsalar, boshqalari boshqacha tavsif va tasnif qilmoqdalar. Nutq jarayoni qanday tuzilgan boʻlsa, oʻsha tuzilishi asos qilib olinib tasnif qilinishi maqsadga muvofiq boʻladi. Nutq jarayoni tipologiyasi tasnif formal koʻrsatkichlar asosida hech qanday mabaga asoslanmasdan tasnif qilsak, maqsadga muvofiq boʻlmaydi. Shu nuqtai nazardan ham nutq tipologiyasini maqsadga muvofiqlik darajasiga qarab ikkiga boʻlib tasnif qilish joiz deb hisoblaymiz. Bular informativlik va noinformativlik jarayoni hisoblanadi.

Nutq jarayonining fikr bildirishga qaratilgan yoʻnalishi illokutiv kuchga ega boʻladi. Nutq jarayonining illokutiv kuchini aniqroq koʻrsatish uchun J.Ostin nazariyasini tanqid qilib, yana ingliz faylasufi va tilshunosi J.Syorl nutq faoliyatining informativ nutq jarayonining besh tipini koʻrsatadi: 1) reprezengtativ (masalani yoki holatni tasvirlaydi); 2) direktiv (buyruq va farmoyishlar); 3) sotsial etiket majburiyatlari; 4) sotsial etiket formulalari, yaʼni raxmatnoma eʼlon qilish, kechirim yoki uzr soʻrash; 5) deklaratsiya yigʻilishni yopiq deb eʼlon qilaman, yigʻilishni ochib deb eʼlon qilaman kabilar.

Noinformativlik boʻyicha nutq faoliyati jarayoni ham oʻzaro muloqot va emotsional, subyektiv baho formalari kabi yoʻnalishlarga boʻlamiz.

Oʻzaro muloqotda standartlashgan etiket formulalaridan foydalaniladi. Masalan,

- Ishlar qanday?
- Raxmat, tuzuk.
- Sogʻliqlar yaxshimi?
- Durust, hozir ancha yaxshiman.

Yuqorida keltirgan nutq dialogida nutq jarayonining ikki ishtirokchisi ham bir-birini koʻrib turib oʻzaro muloqotda boʻlayaptilar. Nutq jarayonining kontakt oʻrnatish maqsadida bir-biri bilan fikr almashishlarida hech qanday

informatsiya bir-biri tomonidan berilmaydi. Faqat bir-biri bilan sotsial etiket formulalari bo'yicha so'rashayapti xolos.

Noinformativlikning ikkinchi yo'nalishi ham nutq jarayoni ishtirokchilari bir-birlarini ko'rib turib uzoq vaqtdan buyon ko'rmaganliklari uchun xayajonli damlarda salomlashishdan odin nutq jarayonining sotsial etiketlari formulalaridan bevosita foydalanadilar.

Masalan,

- Siz hali yetib keldingizmi?

So'zlovchi tinglovchini ko'rib turib siz hali keldingizmi? degan mazmunda savol berayapti. Savolga hech qanday javobning hojati yo'q.

So'zlovchi tinglovchi bilan tanish yoki yaqin kishisi, kutmagan holatda tinglovchining kelganligini ko'rib "Siz hali keldingizmi?" savolini beradi. Tinglovchining kelganligi ma'lum, so'zlovchi uchun ham javob shart emas. Savol javob talab qilmaydi. Shuning uchun so'roq ritorik so'roq ham emas. Mazmun jihatidan esa situatsiyaga qaraganda javob talab qilmaydi.

Bu yerda hech qanday informatsiya emotsial holatni ifodalovchi bir sotsial etiket formulasi xolos. Shu sababdan ham bu jarayonni noinformativlik nutq jarayoniga kiritib tasnif qilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. Sintaksis. Oliy o'quv yurtlari uchun. - Toshkent. "O'qituvchi", 1986.
2. Abdullayev A. Ritorik so'roq gaplar emotsional-ekspressiv fikr ifodalash vositasi sifatida// O'zbek tili va adabiyoti, 1974, №-4, 48-49-betlar.
3. Axmedov A. O'zbek tilida gapning kommunikativ turlari. - Toshkent: "Fan", 1979.
4. Ломтев Т.П. Русская грамматика. Том II. Синтаксис. –Москва, 1980.
5. Lutfullaeva D. Tasdiq gaplarda inkor va shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik: Fil. Fanlari nomzod. dis.avtoreferati; -Toshkent, 1987.
6. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap // O'zbek tili va adabiyoti, 1986, №-6, 28-31 betlar.
7. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. - Toshkent, "O'qituvchi", 1995.